

1918-1939 YILLARDA POLSHANING ICHKI SIYOSATIDAGI O'ZGARISHLAR

U. F. Xayrullayev

Osiyo xalqaro universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada keltirilgan ma’lumotlar birinchi jahon urushidan keyin Polshaning g‘olib davlatlar tomonidan tan olinishi va ikkinchi jahon urushigacha bo‘lgan davrda uning siyosiy va iqtisodiy ahvoli, tashqi va ichki siosat masalalarini o‘rganish va bo‘lingan davlatning birlashuvigacha bo‘lgan davrini nazariy tahlil qilish, Polshaning jahon hamjamiyatida tutgan o‘rni jarayonining ayrim masalalarini optimal o‘rganishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: Polshaning yarimmustamlaka sharoitidagi ichki siyosati, mehnatkashlarning ish tashlashlari, Birinchi jahon urushidan so‘ng mustaqillikkka erishishi, Statizm davri, Yangi iqtisodiy brigade, Sanatsiya davri, Seym islohotlari, Zlotiyning joriy etilishi, Pilsudiskiy rejimi, Ridz Smiglining kata siyosat sahnasiga kirib kelishi, Polsha-sovet urushi, Vays rejasi, Daues rejasi, Jeneva konferensiyasi, Lokarno kelishuvi, Rapallo shartnomasi, Ribentrop-Molotov pakti.

1918-yil noyabr oyi boshida Lyublin shahrida Ignatsi Dashinskiy boshchiligidida Polsha Respublikasining Muvaqqat xalq hukumati tuzildi. Bu tuzilma so‘l sotsialistik yo‘nalishga ega edi va Varshavadagi konservativ nemisparast Regensy Kengashiga qarshi edi. Yenjdey Morachevskiy Dashinskiy hukumatida aloqa vaziri etib tayinlandi¹. 1918-yil 14-noyabrdada Jozef Pilsudskiy davlat boshlig‘i deb e’lon qilindi. Bir kundan keyin Ikkinchi Polsha-Litva Hamdo‘stligining birinchi hukumati tuzildi. Pilsudskiy Yenjdey Morachevskiyni bosh vazir etib tayinladi. 1918-yil 16-noyabrdada Y. Pilsudskiy radio orqali xalqqa murojaat qilib G‘arb mamlakatlari Polsha

¹ Матвеев Г. Ф. Юзеф Пилсудский и Польская государственность (1892 – 1921) Мн.: БГУ, 2010. — С.123.

mustaqilligini tan olganligini e'lon qildi¹. 1919-yilning ikkinchi yarmida Berlin, Varshava va Parijda bu masala bo'yicha Polsha-Germaniya muzokaralari bo'lib o'tdi. Polsha tomonining Versalda ilgari surilgan tashabbuslari g'olib mamlakatlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Polsha boshqaruvida Pilsudiskiyga G'arb kuchlari tomonidan bosim uyushtirilayotgan edi. U 1918-yil 16-noyabrda G'arb davlatlariga nota yubordi lekin, G'arb hukumatlari tomonidan bu nota inobatga olinmadi. Hukumatni almashtirish Pilsudskiy uchun nafaqat rasmiy huquqiy, balki nufuzli masala hisoblanardi. Polshada 1919-yil 4-yanvardan 5-yanvarga o'tar kechasi davlat Sapegi Yanushaytis –Jegota Marian Jozef, knyaz Eustake Sapegi, iqtisodchilar Mstislav Dymovskiy va Yerji Zdzichovski boshchiligidagi konservativ guruh davlat to'ntarishini amalga oshirishga urindi. Millatchi ruhdagi kursantlar otryadi Morachevskiy boshchiligidagi bir qancha vazirlarni hibsga oldi².

Saylovlar bo'yicha kichkina bir statistikaga e'tibor qaratadigan bo'lsak 1919-yil 26-yanvar kuni saylovlarda 296 nafar deputat saylandi. Germaniya va Avstriya-Vengriyadagi 44 nafar sobiq polshalik deputat ham Seymga saylangan. 1919-yil iyun oyining oxirida Seymda 394 deputat, 1920-yil may oyida - 412, 1922-yil mart oyida - 432 mandat egalari bor edi. Dastlab, Seymda 10 ta fraksiya shakllangan bo'lsa, 1922-yilda ularning soni 16 taga yetdi. Mandatlarning nisbiy ko'pchilagini (116 ta) o'ngdagagi Xalq milliy ittifoqi oldi. Seymning chap qanoti PSL "Qutqaruv" (58 o'rinn) va Polsha sotsialistlari (32 o'rinn) deputatlaridan iborat edi. Pilsudiskiy davrida Polsha davlati bir qator muvaffaqiyatlarga erishdi. Qilgan xizmatlari uchun 1921-yil 25-iyunda Polshaning "Virtuti Militari" ordeni bilan taqdirlandi.³ Polshada demokratik jarayonlar shiddat bilan rivojlana bordi. 1922-yil 9-dekabrdan Polsha o'zining demokratik yo'l bilan saylangan birinchi prezidentini qabul qildi. Bu chap dehqonlar partiyasidan nomzod Gabriel Narutovich edi. 1922-yil 14-dekabrdan Pilsudski

¹ Лыкошина Л.С., Матвеев Г.Ф., Носкова А.Ф. Польша в XX веке. Очерки политической истории — М.: Издательство «Индрик», 2012. с. 122

² Матвеев Г. Ф. Юзеф Пилсудский и Польская государственность (1892 – 1921) Мин.: БГУ, 2010. — С.131.

³ Лыкошина Л.С., Матвеев Г.Ф., Носкова А.Ф. Польша в XX веке. Очерки политической истории — М.: Издательство «Индрик», 2012. с. 175

hokimiyatni Polshaning birinchi prezidenti Gabriel Narutovichga topshirdi¹. Ikki kundan so‘ng, Polshani larzaga keltirgan va jahon matbuotining birinchi sahfalariga tushgan fojiali voqeа yuz berdi. “Zahenta” ko‘rgazma zalida san’at ko‘rgazmasini tomosha qilayotgan prezident Narutovich orqasidan uchta o‘q uzildi. U o‘sha kuniyoq hushiga kelmay olamdan o‘tdi. Qotil Madaniyat vazirligida xizmat qilgan muvaffaqiyatsiz rassom va san’atshunos E.Nevyadomskiy edi. Yoshligida u Milliy liga a’zosi bo‘lgan. Qotilni tanigan odamlar uni aqliy jihatdan nosog‘lom odam deb bilishardi. Prezident Gabriel Narutovich o‘ldirilganidan so‘ng Seym marshali (raisi) Masey Ratay Vazirlar Kengashi Raisi lavozimiga Polsha armiyasi bosh qo‘mondoni Vladislav Sikorskiy nomzodini taklif qildi. Sikorskiy bu lavozimni 1923 yil 26 maygacha turdi. 1926-yil mayida Pilsudikiy tomonidan davlat to‘ntarishi o‘tqazildi oqibatda 379 kishi halok bo‘lgan va 920 kishi yaralangan davlat to‘ntarishidan keyin ertalab Polsha yangi siyosiy tizim bilan uyg‘ondi va u tez orada "sanatsiya" (tiklash) rejimi deb nomlandi². 1928-yilgi saylov kampaniyasi Polsha parlamentarizmi tarixida birinchi bo‘lib tashviqot va tashviqot radio orqali ham amalga oshirildi. 1928-yil mart oyidagi saylov natijalari bir ma’noli talqin qilish uchun o‘zini oqlamaydi. Ularda 34 ta siyosiy tashkilot ishtirok etdi. Saylov natijalariga ko‘ra Seymda 21 ta fraksiya shakllandi. Polshaning 20-yillar oxiridan 30-yillar boshigacha ichki siyosati Pilsudskiy va parlament o‘rtasidagi kurash bilan kechdi.

Xulosa o‘rnida shuni takidlash kerakki Polsha davlatida oz muddat bo‘lsada demokratiya shamoli hilpirab turdi. Bir nechta davlat to‘ntarishlari amalga oshirilib hukumat tez-tez almashib turgan bo‘lsada ularning barchasi Polyak xalqining farovonligi uchun xizmat qildi.

¹ Roos, Hans. A History of Modern Poland, from the Foundation of the State in the First World War to the Present Day, 1st American, New York: Knopf, 1966. p. 153

² Лыкошина Л.С., Матвеев Г.Ф., Носкова А.Ф. Польша в XX веке. Очерки политической истории — М.: Издательство «Индрик», 2012. стр. 165

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Anna. M. Cienciala. Poland and the Western powers 1938-1939: a study in the interdependence of Eastern and Western Europe. Routledge & K.Paul. 1968.
2. Anna Jarosz-Nojszewska. DEBATE OVER THE ECONOMIC ROLE OF THE STATE IN POLAND IN THE WORKS OF THE REPRESENTATIVES OF THE KRAKOW SCHOOL, THE LEVIATHAN ORGANIZATION AND THE FIRST ECONOMIC BRIGADE IN THE YEARS 1919-1939 — Poznan 2017.
3. Artur Lipian. Unfulfilled Ambition: The Polish-Soviet War, 1919–1920. The Journal of History and Political Science (York University Press, 2017)
4. Mieczysław B. Biskupski. The origins of modern Polish democracy. Ohio University Press. 2010
5. Norman Davies. Heart of Europe: The Past in Poland's Present. Oxford University Press. 2001
6. Piotr S. Wandycz, "The Polish Question" in The Treaty of Versailles: a reassessment after 75 years / edited by Manfred F. Boemeke, Gerald D. Feldman and Elisabeth Glaser, Cambridge, U.K.; New York: Cambridge University Press, 1998,
7. Rzeszowskie Zeszyty Naukowe "Prawo-Ekonoma" Second Polish Republic, ("Law-Economics" Rzeszów Scientific Journals),
8. Sandra Halperin, In the Mirror of the Third World: Capitalist Development in Modern Europe, (1996);
9. Słowo Polskie. 1918 28 XII. № 6. S. 1.
10. Trenkler Carsten, Wolf Nikolaus. Economic integration across borders : the Polish interwar economy 1921-1937—Berlin 2004